Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.111

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANDISHA VA IMPLITSIT MAZMUN FIGURALARINING STRUKTUR QIYOSI

Zarifjon Qo‘ldashev*

Qo’qon Universiteti

✉ zarifjon97.qoldashev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida andisha va implitsit mazmun figuralari (ellipsis, aposiopesis, ritorik so‘roq gaplar)ning qiyosiy-struktur hamda funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Ishda ingliz tilidagi ellipsis asosan sintaktik tejamkorlik (xizmatchi so‘zlar, yordamchi fe’llar va bog‘lamaning tushishi) hisobiga voqelanishi, o‘zbek tilida esa agglyutinativ tabiat tufayli mazmuniy markaz (kesim) tushirilib, grammatik aloqalar affikslar zanjiri orqali saqlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, aposiopesisning o‘zbek muloqot etiketidagi andisha konsepti bilan bevosita bog‘liqligi, ritorik so‘roq gaplarning ingliz tilida sintaktik inversiya va modal operatorlar, o‘zbek tilida esa morfologik yuklamalar (-mi, -chi, -yam) vositasida yuzaga kelishi ilmiy dalillangan.

Kalit so‘zlar

sintaktik-stilistik figuralar, ellipsis, aposiopesis, ritorik so‘roq, andisha, implitsit mazmun, chog‘ishtirma stilistika, agglyutinativ til, lingvokulturema.

DOI: 10.5281/zenodo.23277875

Kirish

Inson nutqiy faoliyatida fikrni ifodalash har doim ham to‘liq grammatik shakllar orqali kechmaydi; ko‘pincha lisoniy tejamkorlik, estetik vazminlik va muloqot etiketi sintaktik sathda muayyan bo‘laklarning tushirilishi yoki o‘zgartirilishini taqozo etadi. Aynan shu sababli implitsit mazmun va andisha figuralari turli tizimli tillarda gapning formal-semantik tuzilishini o‘rganishda o‘ziga xos tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, turli tizimli (analitik va agglyutinativ) tillarda implitsit ma’no ifodalovchi sintaktik vositalarning qiyosiy tadqiqi nutqiy tejamkorlik tamoyilining universal va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - ingliz va o‘zbek tillarida ellipsis, aposiopesis va ritorik so‘roq gaplarning struktur-semantik mexanizmlari, lisoniy tejamkorlik darajasi hamda muloqot etiketiga xos andisha kategoriyasi bilan aloqadorligini chog‘ishtirma aspektda aniqlashdan iborat. J.Lich lisoniy deviatsiya nazariyasida ta’kidlaganidek, stilistik effekt har doim umumtil normasiga nisbatan belgilanishi (markedness) bilan xarakterlanadi [4].

Materiallar va usullar: Tadqiqot obyekti sifatida analitik ingliz va agglyutinativ o‘zbek tillaridagi sintaktik-stilistik figuralar (ellipsis, aposiopesis, ritorik so‘roq gaplar) tanlab olindi.

Tahlil materiallari: Ingliz tili bo‘yicha Ch.Dikkensning «A Tale of Two Cities» romani [1]; o‘zbek tili bo‘yicha O‘.Hoshimovning «Dunyoning ishlari» [2], «Ikki eshik orasi» [3] hamda A.Qodiriyning «O‘tkan kunlar» [5] asarlari matnlaridan olingan sintaktik qurilmalar tashkil etadi.

Qo‘llanilgan usullar: Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, struktur-semantik modellashtirish, kontekstual-pragmatik tahlil hamda J.Lichning lisoniy deviatsiya (normadan chekinish) nazariyasi metodlaridan foydalanildi [4].

Natijalar va muhokama

1. Ellipsis hodisasining tipologik asimmetriyasi. Ellipsis har ikki tilda ham nutqiy tejamkorlikka asoslanadi, biroq tushirib qoldiriladigan elementlar tili tipologiyasiga bog‘liq. Ingliz tilida ellipsis asosan grammatik asosni tashkil etuvchi xizmatchi elementlarni (ega olmoshi, yordamchi fe’l, bog‘lama) qamrab oladi: «Bed, sir?» (-Do you want a bed, sir?), «Still, alive» (-He is still alive), «Against» (-They are witnesses against him [1, 14-b.]), «Ten minutes, good, past eleven» [1, 23-b.] («It is» ega va bog‘lama tushirilgan), «One hundred and five, North Tower» [1, 57-b.] («My name/residence is» tushirilgan). Ingliz tilida mazmuniy o‘zak to‘liq saqlanib, faqat grammatik ko‘rsatkichlar olib tashlanadi, bu esa grammatik kompressiyadir.

O‘zbek tilida esa vaziyat aksincha: gapning grammatik mazmuni ega va to‘ldiruvchidagi affikslar orqali ifodalangani bois, ko‘pincha aynan mazmuniy o‘zak - kesim tushiriladi. «Oltin-kumush kul bo‘lgan, arpa-bug‘doy pul bo‘lgan» [3, 49-b.] kabi qurilmalarda kesimning affiksal takrori (-gan) ritmni ta’minlasa, «Bir tomoni... chakalakzor, bir tomoni... jarlik» tipidagi qurilmalarda bog‘lama umuman qo‘llanmaydi. «Go‘yo butun dunyo bir taraf-u siz o‘zingiz bir taraf...» [2, 4-b.] gapida kesimlik ko‘rsatkichlari («bo‘ladi», «ekansiz») tushirilgan bo‘lsa-da, ikki qismning parallelizmi predikativlikni to‘liq anglatadi. «Daryo kattami, dengizmi?» [2, 16-b.] misolida esa so‘roq yuklamasi (-mi) gapning tugalligini ta’minlaydi. «Lavlagi shirin narsa-yu, ... Baribir non emas» [2, 24-b.] va «– Mana. – Nima bu? – Qarzim» [2, 231-b.] misollarida subyekt («bu») va bog‘lama («-dir»)ning tushishi o‘zbek tilida stilistik buzilish emas, balki tabiiy me’yordir.

Ushbu holat muhim nazariy xulosani beradi: ingliz tilida ellipsis normadan chekinish (deviatsiya) sifatida «belgilangan» (marked) hodisa bo‘lsa, o‘zbek tilida ot-kesimli gaplardagi bog‘lamasizlik normaning o‘zi, ya’ni «belgilanmagan» (unmarked) holatdir [4, 42-45-b.].

2. Aposiopesis figurasi va andisha konsepti. Aposiopesis (nutqning ataylab uzib qo‘yilishi) figurasi qiyosida o‘zbek tilining o‘ziga xos milliy-madaniy mexanizmi namoyon bo‘ladi. «– Ba’zi yumushlar buyursam...» [5, 2-b.] va «– Marg‘ilonni qanday topdingiz... yo?..» [5, 3-b.] qurilmalarida gap shart maylidagi fe’l yoki ayiruv bog‘lovchisi bilan to‘xtatiladi. Bunda tinglovchidan gapning davomini o‘zi anglab olishi kutiladi. Ingliz tilida aposiopesis ko‘proq hissiy portlash yoki qo‘rquv natijasida yuz bersa, o‘zbek muloqot etiketida u andisha kategoriyasining lisoniy in’ikosi hisoblanadi.

3. Ritorik so‘roq gaplarning struktur-funksional qiyosi. Ingliz tilida ritorik so‘roq gaplar sintaktik inversiya va modal operatorlar tizimiga tayanadi: «Do you call that being a Banker?» [1, 25-b.] jumlasi yordamchi fe’lning oldinga o‘tishi orqali kuchli inkorni bildiradi. «Who could sit upon anything in Fleet Street... and not be dazed and deafened...?» [1, 149-b.] qurilmasida modal fe’l inkor ma’nosini mustahkamlaydi; inkor-so‘roq shakli esa tasdiq ifodalaydi: «Is it not remarkable that Doctor Manette... should never touch upon that question?» [1, 92-b.].

O‘zbek tilida esa ritoriklik so‘z tartibi o‘zgarishiga emas, balki morfologik intensivlikka tayanadi. «Onaning yosh-qarisi bo‘ladimi?» [2, 8-b.] gapida so‘z tartibi saqlangan holda, -mi yuklamasi «bo‘lmaydi» inkorini beradi. «Ona sutiyam sotiladimi?» [2, 45-b.] misolida esa -yam va -mi yuklamalar zanjiri axloqiy inkor modelini hosil qiladi. Shuningdek, so‘roq olmoshlarining kesim pozitsiyasida kelishi («Dunyoning ishlari shu ekan, iloj qancha?» [2, 7-b.]) hamda elliptik modellarda -chi yuklamasining qo‘llanishi («Nurning vazni-chi? Baxtning tarozisi-chi?» [2, 303-b.]) ritorik vazifani to‘laqonli bajaradi.

Parametr	**Ingliz tili (analitik)**	**O‘zbek tili (agglyutinativ)**
Ellipsisning asosiy mexanizmi	Sintaktik sathda grammatik kompressiya (yordamchi fe’llar, bog‘lamalar, olmoshlar tushishi)	Leksik-semantik sathda kesim (mazmuniy markaz) tushishi, affikslar orqali kompensatsiya

Parametr	Ingliz tili (analitik)	O‘zbek tili (agglyutinativ)
Stilistik maqomi (markedness)	Belgilangan (marked) — normadan chekinish (deviatsiya) sifatida qabul qilinadi	Belgilanmagan (unmarked) — ot-kesimli konstruksiyalarda tabiiy normativ holat
Aposiopesisning yetakchi funksiyasi	Affektiv holat (kuchli hayajon, qo‘rquv, keskin to‘xtash)	Muloqot etiketi, andisha, hurmat va ijtimoiy vazminlikning lisoniy in’ikosi
Ritorik so‘roq gaplar shakllanishi	Sintaktik inversiya (so‘z tartibi o‘zgarishi) va modal operatorlar tizimi	Morfologik intensivlik: yuklamalar zanjiri (-mi, -chi, -yam) va so‘roq birliklari
Lisoniy tejamkorlik sathi	Grammatik sath ustuvor	Morfologik-affiksal sath ustuvor

1-jadval. *Ingliz va o‘zbek tillarida implitsit mazmun figuralarining qiyosiy-struktur parametrlari.*

Xulosa

1. Ingliz va o‘zbek tillarida ellipsis hodisasi o‘rtasidagi vazifaviy asimmetriya tillarning analitik va agglyutinativ tabiati bilan bevosita bog‘liqdir: ingliz tilida tejamkorlik grammatik elementlar hisobiga yuz bersa, o‘zbek tilida agglyutinativ affikslar zanjiri hisobiga kesim tushirilib, semantik tejamkorlik ta’minlanadi.

2. Aposiopesis figurasi o‘zbek tilida milliy muloqot etiketining ajralmas qismi bo‘lgan «andisha» konseptining sintaktik darajadagi asosiy lisoniy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

3. Ritorik so‘roq gaplarning hosil bo‘lishi tildan-tilga o‘tishda sintaktik sathdan (ingliz tilidagi inversiya) morfologik sathga (o‘zbek tilidagi yuklamalar) ko‘chadi. Ushbu ilmiy xulosalar qiyosiy tipologiya, matn lingvistikasi va tarjima amaliyoti uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Dickens, C. (1983). A tale of two cities. J. M. Dent & Sons Ltd.

[2] Hoshimov, O‘. (2015). Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. Yangi asr avlodi.

[3] Hoshimov, O‘. (2012). Ikki eshik orasi. Sharq.

[4] Leech, G. N. (1969). A linguistic guide to English poetry. Longman.

[5] Qodiriy, A. (2007). O‘tkan kunlar. Ziyouz.com kutubxonasi.